

**UDK: 638.145.5**

## **XUDUDLARNING OZUQA RESURSLARINI HISOBINI OLISH**

**Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi-R.Q.Jamolov**

**Farg‘ona davlat universiteti talabasi-M.Yunusova**

**Farg‘ona davlat universiteti talabasi-D.Rustamova**

**Farg‘ona davlat universiteti talabasi-X.Jamolov**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada asalarilarni boqish va ko‘paytirishning mavjud usullarini takomillashtirish yoki yangi usullarni ishlab chiqiish bilan bog‘liq tajriba va boshqa ishlarni o‘tkazishda xudularning ozuqa resurslarini aniqlash zarur bo‘ladi. Ozuqa resurslarini aniqlashda asalarizor joylashgan xududda uglevodli ozuqa zahiralari, ozuqa ko‘p va taqchil bo‘lgan davrlarni aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, ushbu usullar asosida muayyan hududda boqish mumkin bo‘lgan oilalarning sonini aniqlash, hamda qishloq xo‘jaligi daraxt va o‘simliklarini changlatish uchun zarur bo‘lgan oilalarga bo‘lgan ehtiyojni hisoblash mumkinligi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ozuqa, resurs, asalarizor, asal, gulchang, maydon, o‘tloq, buta, bog‘lar, o‘rmon, kvadrokopter, pakana, yarim pakana, noddiy, taqvim, gulchang, perga, o‘tsimon o‘simliklar, asal, gul.

## **ПОЛУЧЕНИЕ УЧЕТА ПИЩЕВЫХ РЕСУРСОВ ЖИВОТНЫХ**

**Джамолов Р.-преподаватель Ферганского государственного  
университета**

**Юнусова М.-студентка Ферганского государственного университета**

**Рустамова Д.- студентка Ферганского государственного университета**

**Джамолов Х.-студент Ферганского государственного университета**

**Аннотация:** В данной статье необходимо определить питательные ресурсы пчел при проведении экспериментов и других работ, связанных с усовершенствованием существующих методов выращивания и разведения пчел или разработкой новых методов. При определении пищевых ресурсов

запасы углеводной пищи на участке расположения пасеки позволяют определить периоды обильности и скудности корма. Также на основе этих методов можно определить количество семей, которые можно прокормить на определенной площади, и рассчитать потребность семей, необходимых для опыления сельскохозяйственных деревьев и растений.

**Ключевые слова:** корм, ресурс, пасека, мед, пыльца, поле, луг, куст, сады, лес, квадрокоптер, горох, полгорошка, нодди, календарь, пыльца, перга, травянистые растения, мед, цветы.

## **GETTING AN ACCOUNT OF FOOD RESOURCES OF ANIMALS**

**Teacher of Fergana State University - R. Jamolov**

**Student of Fergana State University –M.Yunusova**

**Student of Fergana State University –D.Rustamova**

**Student of Fergana State University - Kh. Jamolov**

**Abstract:** In this article, it is necessary to determine the nutritional resources of bees when conducting experiments and other work related to the improvement of existing methods of raising and breeding bees or the development of new methods. In the determination of food resources, reserves of carbohydrate food in the area where the apiary is located allow to determine the periods when food is abundant and scarce. Also, based on these methods, it is possible to determine the number of families that can be fed in a certain area, and to calculate the need for families needed for pollination of agricultural trees and plants.

**Key words:** feed, resource, apiary, honey, pollen, field, meadow, bush, gardens, forest, quadcopter, pea, half pea, noddy, calendar, pollen, perga, herbaceous o plants, honey, flowers.

Hududning ozuqa resursini baholashda asalarilarning optimal parvoz radyusi 2 km ekani hisobga olinadi. Ammo asalarilar ozuqa uchun bundan uzoqroq masofaga (3-5 km va undan ko‘proq) uchib borishi mumkinligi hisobga olinib, asalarizor atrofidagi 3 km gacha radyusda, yani 2800 ga maydonda (bunday doiraning maydoni  $28 \text{ m}^2$  ga teng) asal beruvchi o‘simliklar aniqlanadi. Asal beruvchi o‘simliklarni hisobga olish uchun asalarizorni atrofidagi yerdan foydalanish rejasidan nusha olinadi. Unda asalarizor joylashgan joy aniqlanib, sirkul



yordamida doira chiziladi, doira o‘lchami 3 km lik masshtabga to‘g‘ri kelishi kerak. Yaylov va o‘tloqlarda tarqalgan asal va gulchang beruvchi o‘simliklarning turlari tarkibi, ular o‘sadigan yerning umumiy maydandagi hisobi, uchastkani hisobga olish usuli bo‘yicha marshrut tekshirushi bilan aniqlanadi. Buning uchun tahlil qilinadigan xudduda diogonal bo‘yicha har 100 metrda 1x1 m o‘lchamdagisi hisobga olish maydonlari belgilab chiqiladi. Har bir maydonda panjarali romlar (5x5 sm o‘lchamdagisi kvadratlar) yordamida o‘simliklarning umumiy soni, shu jumladan asal va gulchang beruvchi o‘simliklar soni, turlari bo‘yicha alohida hisoblab chiqiladi. Barcha maydonlar bo‘yicha ma’lumotlar qo‘shiladi va o‘rtacha ko‘rsatkich hisoblanadi. So‘ngra o‘tloqdagi asal beruvchi o‘simliklar har bir turining foiz nisbati aniqlanadi. Tadqia qilinayotgan hududning umumiy maydoni va unga to‘g‘i keladigan muayyan o‘simlik turlarining uluchini bilib, uning maydoni hisoblanadi. Yuz gektardan kam bo‘lgan maydonda bunday namuna uchastkasi har gektarda bitta bo‘lishi kerak, katta yaylovlarda butun maydaondan 100 ta namuna olinadi. O‘rmonda asal beruvchi o‘simliklar va butalar egallagan maydonlarni aniqlash uchun o‘rmon xo‘jaligiga murojat qilinadi. O‘rmondagi butalar o‘rmon xo‘jaligining inventarizasiya ma’lumotlari asosida aniqlanadi, ular tahninan quyidagicha tavsiflanadi: qalin-80 foiz, o‘rtacha -40 foiz, siyrak -10 foiz va juda siyrak -1 foiz. Agarda bunday ma’lumotlar bo‘lmasa, asal beruvchi va asal bermaydigan o‘simliklarning taxminiy nisbatini mustaqil ravishda aniqlash mumkin.

Buning uchun o‘rmon xududida diogonal bo‘yicha 10 m<sup>2</sup> o‘lchamdagisi maydonlarda turi bo‘yicha daraxtlar va butalar soni hisoblab chiqiladi. Bunday hisob-kitoblar teng masofadagi oraliqlarda 20 ta nuqta amalga oshiriladi. Keyin har hil turdagisi asal beruvchi daraxt va butalar ushbu xudduda qancha maydonni egallashi hisoblanadi. O‘rmonda asalli o‘tsimon o‘simliklarni hisobga olish xududi o‘tloqlarda bo‘lgani kabi amalga oshiriladi.

Asal beruvchi madaniy dala ekinlari, bog‘lar va shu kabilarning maydonlari, asalarilarning parvoz faolligi xududida joylashgan qishloq xo‘jaligi korxonalarining yerdan foydalanish rejalaridan olinadi. Agar asalarizor axoli punkti yaqinida joylashgan bo‘lsa, u holda xususiy uchastkalarda va xususiy bog‘larda joylashgan entomofil qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlari hisobiga olinadi.

Asal beruvchi o‘simliklarning aniqlangan maydonlari va ularning tur tarkibi asosida asalarizorning asal balansi ishlab chiqiladi. Unda alohida yer maydonlari

kesimida o‘simliklar egallagan maydonlar, asal beruvchi o‘simliklarning tur tarkibi, ularning asal berish mahsuldorligi, o‘simliklarning gullash davri va zarur hollarda entomofil qishloq xo‘jaligi ekinlarini changlatish uchun zarur oilalar soni ko‘rsatiladi. Shuningdek, bu hududda joylashgan boshqa asalarizorlarning asalari oilalari mavjudligi ham hisobga olinadi.

Dala yoki uchastka maydonini hisobga olish jarayonini osonlashtirish uchun kvadrokopterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ular yordamida tanlangan maydon fotosuratga olinadi va suratlар kompyuter dasturlaridan biriga o‘tkazilib (ArchiCAD: AutoCad va boshqalar) uchastka maydoni yuqori aniqlikda hisoblab chiqiladi.

Biroq hisobga olish natijalaridagi hatolar o‘simliklarning asal berish mahsuldorligini aniqlashdagi muammo hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda daraxtlarga tegishli. Masalan: olma daraxtining turli navlarida (pakana, yarim pakana, noddiy navlar)-shohlar o‘lchamlari va ulardagi gular soni turlicha bo‘lishi sababli ushbu o‘simlik tomonidan ishlab chiqariladigan nectar umumiy miqdori gektar hisobiga qayta hisoblanganda sezilarli darajada farq qiladi. Daraxtlarning yoshi haqida ham shu narsani aytish mumkin. Masalan: 4-5 yoshdagи daraxt va 20 yoshdagи daraxtning shoxlari nafaqat shoxlar maydini, balki ulardagi gular soni bilan ham farq qiladi. Ammo yaqin kelajakda turli omillarni (hisobga olish o‘tkazilayotgan xudud, tuproq turi, o‘simliklarning rivojlanish darajasi, ob-havo sharoiti va boshqalar) hisobga olgan holda, maydonlarni hisobga olish va o‘simliklarning asal va gulchang berish mahsuldorligini aniqlashga qodir bo‘lgan kompyuter dasturlari paydo bo‘lishiga umid qilamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Xududning umumiy asal zaxirasi quyidagi usulada hisoblanadi:

Asalarichilik bo‘yicha ma’lumot beruvchi adabiyotlardan o‘simliklarning asal mahsuldorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinadi. Odatda ularda bu ko‘rsatgich1 hektar o‘simlik maydoniga nisbatan ko‘rsatiladi. Arizor joylashgan xudduda (3 km radyusda) o‘simlik egallagan maydon o‘simlikning asal mahsuldorligiga ko‘paytiriladi.

Xuddi shunday hisob-kitoblar har bir o‘simlik turi bo‘yicha amalga oshiriladi. Uchastkalar bo‘yicha asal berish mahsuldorligi yig‘indisi hisoblanib, xududning

umumiyligi, ya’ni biologic asal zaxirasi aniqlanadi. Shu bilan birga asalarilar xudud ozuqa resurslarining taxminan 50 foizdan samarali foydalanishi mumkinligi hisobga olinadi (ob-havo sharoitlari tufayli-nektarning yuvilib ketishi yoki qurishi: gullash davrida ob-havining yomon kelishi: xashoratlar, qo‘ng‘izlar tomonidan nektarning istemol qilinishi va xokozo).

Shu sababli xududning umumiyligi biologic zaxirasi ikkiga bo‘linadi va asalarilar samarali parvoz xududida o‘simganlardan to‘plangan nektardan ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan asal miqdori hosil qilinadi.

**Tadqiqot natijalari:** Arizorda boqish mumkin bo‘lgan asalari oilalari sonini aniqlash uchun quyidagilar hisobga olinadi. Har bir asalari oilasi yil davomida o‘rtacha, tahminan 90 kg asalni o‘z ehtiyojiga istemol qiladi. Bu ko‘rsatkichga bir mavsumda oiladan olish rejalashtirilgan asalning miqdori qo‘shiladi. Keyin xududning asalarilar foydalanishi mumkin bo‘lgan umumiyligi asal zaxirasi hosil bo‘lgan raqamga bo‘linadi. Olingan natija ushbu xududda boqish mumkin bo‘lgan oilalarining taxminiy sonini ko‘rsatadi.

Biroq arizor asal balanisining nazariy hisob-kitoblari har doim xam mos kelavermaydi. Arizor asal resurslarini aniqroq aniqlash va asal asal kelishini mavsum davrlari bo‘yicha taqsimlash uchun ushbu xududdagi asalli o‘simganlardan gullash davrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ko‘p yillik qaydlari, nazorat uyalari va asalari oilalarining xaqiqiy mahsuldarligi ko‘rsatkichlaridan foydalanish lozim.

**Xulosa:** Fenologik kuzatuvlari va asalli o‘simganlardan gullash taqvimidagi o‘simganlardan tur tarkibidan tashqari, gullash davlarining hisobga olinishi katta ahamiyatga ega. Asalli o‘simganlardan gullash davri va gullash davomiyligi asal yig‘ish davomiyligi, asal yig‘sh boshlanishi, uning maksimal davri va tugashini belgilab beradi.

Xar qanday o‘simganlardan gullashida ketma-ket keluvchi to‘rtta bosqichga ajratiladi. 1) gullashning boshlanishi. 2) ommaviy gullash boshlanishi. 3) ommaviy gullashni tugashi. 4) Gullashning tugashi.

O‘simganlardan gullash davrining boshlanishi ilk gullarning paydo bo‘lishi bilan belgilanadi. Shamol yordamida changlanadigan o‘simganlardan (tol, qayin, terak, o‘rmon yohg‘og‘i) gullash boshlanishi gul shadasi silkitilganda gul changlari to‘kilishi boshlaydigan kun kundan hisoblanadi. Tollarda gullashdan oldin erkak



gullarda sariq changdonlar paydo bo‘ladi, urg‘chi gullarda esa ko‘k ranglar paydo bo‘ladi. Asal beradigan daraxt va butalar ommaviy gullashi davri boshlanish davri sifatida barcha mavjud gullarning 4 dan bir qismi ochiladigan kun hisoblanadi. Shu vaqitdan boshlab, o‘simliklarning generativ organlari chetdan changlanish uchun tayyor bo‘ladi.

Daraxtning barcha shohlaridagi gullarni sanashning murakkabligini hisobga olib, to‘liq gullah boshlanadigan vaqitni hisobga olishi aniqlash uchun nazorat shoxlaridagi gullarni sanashdan foydalanish mumkin. Asalli o‘tsimon o‘simliklarda gullah davri boshlanishi hududdagi o‘simliklarning kamida uchdan bir qismining gullari ochilgan vaqt bo‘ladi.

Ommaviy gullah davrining tugash vaqtida daraxt yoki uning birinchi va ikkinchi darajali asosiy shohlarida (nazorat shohlari) barcha gullarning ko‘pi bilan 25 foizi qolgan tunni, o‘tsimonlarda esa mos ravishda ko‘pi bilan 30 foizi qolgan tunni qabul qilish mumkin. To‘liq gullahning boshlanish va tugashini bilgan holda bu davrning davomiyligini aniqlash oson bo‘ladi.

Daraxtlarda gullahning tugashi oxirgi gullarning gullahi bilan, o‘tsimon o‘simliklarda tajriba maydonida faqat bitta-yarimta gullayotgan gullar qolgan vaqitga mos keladi. Gullah jarayoni bo‘yicha barcha kuzatuvlari qaydlar jurnaliga kiritiladi va unga asalga boy o‘smlilar nomlari va gullahning turli bosqichlari muddatlari qayd etib boriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asalarichilikda tajriba ishlari. V.Bravarskiy. Sh. Suyarqulov. Ya. Brindza. V. Otchenashko. Toshkent- “Print. Media” bosmaxonasi. 2021 yil.
2. Gulov A.N., Borodachev A.V., Beryozin A.S. Vozrast trutney i kachestvo trutney. “Pchelovodstvo”, 2015, №4, str. 44-46.
3. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., Xolmatova, M. A. (2022). Asalarilar oilasining yashash tarzi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 666-671.
4. R.Jamolov., O.To‘rayev, D.Xatamova. “Asalarichilik asoslari”, Farg‘ona “Classik”, 2022.
5. R.K.Jamolov, “Ona asalarining eksterer va interver ko ‘rsatkichlari”, Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific. 2023 yil



6. Jamolov R., Boboyev B., O'ktamjonov S. Farg'ona vodiysida ona asalari yetishtirishning asalarichilikni rivojlantirishdagi va oila mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati Science and innovation.–2022.–т. 1.–№. d7.–с. 43-49.
7. R Jamolov, H Raximov, A Tojaliyev. Asalarining harakatlanuvchi a'zolari. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan 1 (7), 282-287
8. R.Jamolov. O'zbekistonda asalari zotlarini tanlash va parvarishlanayotgan asalarilar irqlari tarkibi. (Science and innovation 2 (Special Issue 8), 630-634 b)
9. R.Q. Jamolov, G.H. Sharofiddinova. “Honeycomb, structure and reproduction of inches in the frame”. Образование наука и инновационные идеи в мире 18 (1), 57-61
- 10.Jamolov R.Q, Raximov H, Tojaliyev A.Asalarilarning g'umbak oldi va g'umbaklik davri. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. 2023/10/30.
11. R Jamolov, R Azizov, Z. Oktamova Peaceful replacement of queen bees by honey bee colonies and factors affecting queen quality Science and innovation 1, 229-233 b.
- 12.Teshaboyev N., Muhammadaliyev M., Xalilov A. SOIL PROTECTION IN MINING //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 489-492.  
Қ Давронов, Н Тешабоев МИКРОЭЛЕМЕНТЛИ ЎТИЛЛАРНИ ЎСИМЛИКНИ БАРГИ ОРҚАЛИ ҚЎЛЛАШНИНГ ҒЎЗАНИ 1000 ДОНА ЧИГИТ ВАЗНИ ҲАМДА БИР КЎСАКДАГИ ПАХТА ВАЗНИ НИНГ ЎЗГАРИШИГА ТАЪСИРИ Science and innovation, 2023 - Т.2. – №. 8. – С. 489-492
- 13.Teshaboyev, N; Tursunaliyev, Sh; Qodirjonova, R G ‘O ‘ZANING PAXTA HOSILDORLIGI QATOR ORALARNI CHUQUR YUMSHATISHNI TA’SIRI Science and innovation, 2022- T.1. – №.D7. – С. 655-659
- 14.Teshaboeva, M., Abdug'Anieva, D., & Raximjonova, S. (2022). ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАН МОШ ҲОСИЛИ ТАРКИБИДАГИ ПРОТЕИН МИҚДОРИ. *Science and innovation*, 1(D7), 517-526.
15. Amanov A. K. et al. FREE ECONOMIC ZONES ESTABLISHED IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES //Экономика и социум. – 2021. – №. 6-1 (85). – С. 39-47.



Research Science and  
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN  
UZBEKISTAN” JURNALI**

**VOLUME 1, ISSUE 9, 2023. DECEMBER**

**ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023**

**ISSN 2992-8869**



Research Science and  
Innovation House

16.Davronov, Khahramonjon; Teshaboyev, Nodirbek THE EFFECT OF FOLIAR APPLICATION OF MICRO ELEMENT FERTILIZERS ON COTTON FLOWERING DYNAMICS IN COTTON CULTIVATION - Science and innovation, 2023 T.2. – №. 6. – С. 193-196

17. Turdaliev A. T. et al. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – Т. 1068. – №. 1. – С. 012047.



---

**Research Science and  
Innovation House**